

PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL QILISHDA OTA-ONA VA OILANING ROLI VA AHAMIYATI

Jumanazarova Sarvinoz Ergash qizi
UrDPI Pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim -tarbiya jarayonini tashkil qilishda oila hamda ota-onaning farzand hayotida tutadigan o'rni va roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, ta'lim-tarbiya, pedagog, psixologik holat, tarbiya jarayoni, oilaviy muhit.

Hozirda har bir ta'lim muassasasida o'quvchi-yoshlarning bilim olishlari, o'z ustida ishlashlari uchun zamon talablariga javob beradigan, qulay shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. O'z mutaxassisligini chuqur egallagan pedagoglar, o'qituvchilar o'quvchilarga o'z bilimlarini o'rgatib ma'nan va jismonan yetuk, komil, el-yurtga foydasi tegadigan yoshlarni yetishtirib kelmoqdalar. Bugungi kunda o'quvchilar bunday imkoniyatlardan samarali va oqilona foydalanib kelmoqdalar. Bu yo'l bilan ular o'z ustida ishlar ekanlar, o'z bilimi va ma'naviy dunyosini boyitib borib, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishda davom qilishar ekan, shak-shubhasiz, bunday yoshlarni haqiqiy kelajak bunyodkorlari desak adashmagan bo'lamiz. Albatta, bunday yoshlarni, el-yurtga foydasi tegadigan komil inson qilib tarbiyalashda nafaqat ustozmuallimlarning, balki oila hamda ota-onaning o'rni beqiyosdir. Diyorimizda oila ma'naviyati asrlar davomida o'ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Bular zamirida yoshlarga oilada, ta'lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta'lim-tarbiya yotadi. 2018-yil 19-yanvarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida oila to'g'risida "Oila kichik Vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, Vatan tinch bo'ladi" deb bejiz aytmagan. Shu bilan birgalikda oilada farzand tarbiyasidagi eng muhim omil bu- ota-ona tarbiyasi, ularning farzandiga qilgan e'tiboridir. Ota-ona farzandi bilan doimiy muloqotda bo'lishi, bola bilan ishlashi, unda qanday muammolar borligini bilishi va uni birgalikda hal qilishi, farzandiga dars tayyorlashda ko'maklashishi, individual suhbatlar olib borishi lozim. Yana bir muhim jihati shuki, ota-onalar farzandi tarbiyasiga mas'uliyatli yondashishi, bolalariga yoshligidan kitob o'qib berish orqali ularda kitobga muhabbat uyg'otish bilan ezgulikka chorlashlari kerak. Ota-ona farzand tarbiyasida bolaning yutuq va kamchiliklarini to'g'ri baholay olishlari, ularga ko'proq vaqt ajratishlari kerak. Bola birinchi navbatda ota-onasiga suyanadi, ularga ishonadi. Chunki bola o'zining xayoliy dunyosida ota-onasini o'zining qahramoni deb biladi. Agar ota-ona farzandi hayotiga befarqlik bilan qaray boshlasa, unga ishonchsizlik bildirsa, u holda farzand asta-sekin so'na boshlaydi. Va

unda “Nega men e’tibordan chetda qolishim kerak?”-degan noto’g’ri fikr shakllanib, unda hayotga bo’lgan muhabbat yo’qola boradi. Va bunday bolalarda ma’naviy bo’shliq paydo bo’ladi. Har qanday g’araz niyatli kuchlar ularni o’z yo’liga sola oladi. Albatta, yoshlar bunday holga tushib qolmaslik uchun ota-ona, o’qituvchilar boladan e’tibor va mehrini ayamasligi kerak, bolalarni yoshligidan Vatanga, ota-onaga muhabbat, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadga muvofiq bo’ladi. Ularga yoshligidan ertak kitoblar o’qib berish, dars tayyorlash hamda ta’lim olishga sharoit yaratib berish, yoxud boshqa ijodiy ishlarga jalb qilish kerak. Farzandlarga bunday sharoit yaratib berish bilan birgalikda ota-onaning o’zi ham farzandga ibrat bo’la oladigan inson bo’lishlari zarur. Zeroki, qadimdan kelgan maqol bor: ”Qush uyasida ko’rganini qiladi” bu bejizga aytilmagan. Qachonki, ota-ona shu ikkita vazifani bajara olsa, ularning farzandlari haqiqiy porloq kelajak quradigan yoshlar bo’lib yetishib chiqa oladilar:

1. Avvalambor, ota-ona bolaga namuna bo’lishi lozim;

2. Ota-ona bolaga shunday go’zal tarbiya berishi kerakki, bu tarbiya uning umri davomida unga foyda keltirishi kerak.

Dunyoda ota-ona eng ulug’ zotlar hisoblanadi. Chunki ular o’z farzandlari uchun hayotini, mehrini bag’ishlaydi. Ota-ona farzandi dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, o’stiradi, yediradi, kiydiradi, kasal bo’lsa uni parvarish qiladi, oq yuvib oq taraydi. Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta’minlashga harakat qiladi.

Payg’ambarimiz Muhammad(s.a.v.) bunday marhamat qiladilar: ”Ota-ona farzandiga yaxshi xulqdan ham ortiqroq narsa bera olmaydi”. Demak, ota-ona farzandiga beradigan eng yaxshi narsasi qimmatbaho kiyim, yaxshi taom yoki ajoyib sovg’a emas, balki yaxshi tarbiya va go’zal xulqdir. Chunki, kiyim, taom, sovg’a -bular vaqtinchalik narsalardir. Kiyim eskirishi, yirtilishi, sovg’a, mol-dunyo yo’qolishi mumkin. Ammo go’zal xulq ,tarbiya hech qachon eskirmaydi, yirtilmaydi, yo’qolib ham qolmaydi, uning butun hayotida go’zal xulq ,yaxshi tarbiya faqat va faqat foyda keltiradi. Nafaqat umri davomida, balki vafotidan keyin ham, oxiratda ham naf keltiradi.

Ota-ona farzand bilan ishlash davomida psixolog, aktyor, pedagog kabi rollarni ham o’ynashiga to’g’ri keladi. Avvalambor, ota-ona farzand bilan do’st, dugona, o’rtoq sifatida muloqot olib borsa farzand ham o’zini erkin tuta boshlaydi va o’z fikrlarini erkin tarzda bayon qila oladi. Ota-ona farzandini majburlashga urinmasligi, psixologik usullardan foydalangan holda muomala qilishi darkor. Bola “yo’q” so’ziga o’zi xohlamagan holda qarshi chiqadi. Masalan, bola o’ynashni yoki televizo’r ko’rishni xohlasa “Yo’q! Darslaringni qil!” -deyish o’rniga “Mayli, ammo avval darslaringni qilib ol” deyilganda bu javobga nisbatan ijobiy fikr paydo bo’ladi. Ya’ni har bir so’z bolaga psixologik jihatdan ta’sir qiladi. Muomala jarayonida muloyimlik suhbatni

yanada samimiy bo'lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bola bilan muloqotda bo'lganda erkin, samimiy va nutqdagi ta'sirli, chiroyli iboralardan foydalangan ma'qul.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolaga ta'lim-tarbiya berish jarayonida uning psixologik holatini ham hisobga olish kerak. Ota-onalar o'z farzandlarining yetuk inson bo'lib yetishishlarida oilaviy muhitni to'g'ri, chiroyli tashkil qilsalar bu maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir ota-ona bolaga e'tibor qaratib, u bilan uning ustida birgalikda ishlashi, bolaning hayotidagi eng muhim insoni, suyangan tog'i sifatida gavdalanib bilishi kerak. Qaysiki mamlakatdagi oilada muhit yaxshi bo'lar ekan, ta'lim-tarbiyaga e'tibor kuchayar ekan, o'sha mamlakatda ta'lim sohasida ham yuksak bilim pog'onalariga erishiladi. Zeroki, yorug' kelajak bugungi yosh avlod qo'lidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.S.Salayeva "Umuniy Pedagogika "Darslik."Nodirabegim nashriyoti".Toshkent-2021-yil
2. X.Suvonqulova "Xalq maqollari"."Adabiyot uchqunlari".Toshkent-2014-yil
3. <https://religions.uz/uz/news/detail>
4. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/president-oila-kichik-vatan>.